**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOShKENT ARXITEKTURA-QURILISh UNIVERSITETI**

O'QUV ISHLARI DEKANATI TOMONIDAN RO'YXATGA OLINDI
T/R: 85615
"31" 05 2024 y.

**«Tasdiqlayman»**
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
rektori v.v.b.
_____________ B.A.Tulaganov
“ 31 ” ____________ 2024 yil

# “YERLARNI MAQBULLASHTIRISH VA BOSHQARISH”
## FANNING DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| Bilim sohasi: | 700 000 - | Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari |
| Ta’lim sohasi: | 720 000 - | Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60723300 - | Geomatika muhandisligi |

**Toshkent 2024**

| Fan/modul kodi<br>YMB 1404 | | O'quv yili<br>2024-2025 | Semestrlar<br>4 | ECTS - Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | | Ta'lim tili<br>O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>4 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Yerlarni maqbullashtirish va boshqarish | | 60 | 60 | 120 |

2.

### I. Fanning mazmuni

Fanning maqsadi -talabalarning davlat kadastri sohasidagi nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish; yer tuzishning asosiy tamoyillarini, shahar va qishloqlarda yerdan foydalanish qoidalarini, yer tuzish jarayonlarini va tegishli qonunchilik infratuzilmasini izohlash, mavjud vaziyatni tahlil qilish, yer siyosatini ishlab chiqish, zarur kontseptual va texnik usullarni shakllantirish ko'nikmalarini hosil qilish.

" Yerlarni maqbullashtirish va boshqarish" fanining asosiy vazifalari:

- yerlarni maqbullashtirish va boshqarishning asosiy tushunchalari, toifalarini belgilash.
- talabalarni tabiy muhit va ko'chmas mulkning ajralmas tarkibiy qismini talabalarni tabiy muhit va ko'chmas mulkning ajralmas tartibga soluvchi normativ – huquqiy hujjatlarning mazmuni bilan tanishtirish;
- talabalarni yer qonunchiligi normalarini mustaqil ravishda izohlashda va qo'llashga o'rganish, yer munosabatlari sohasidagi turli vaziyatlarni tahlil qilish va qonuniy boshqarish;

Fan bakalavrlarga yer tuzish va yer qonunlariga chuqur hurmatni shakllantrishga, yerga egalik qilish, yer resurslarini himoya qilish, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik, olingan bilimlarni amalda qo'llash qobiliyatini oshirishga qaratilgan.

### II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1 – mavzu. Er tabiiy resurs va ishlab chiqarish vositasi sifatida ifodalanishi.**

O'zbekiston Respublikasida yer tabiiy resurs sifatida ifodalanishi. Yer ishlab chiqarishning asosiy vositasi va uning tamoyillari.

**2 – mavzu. Yerni boshqarishning nazariy asoslari.**

O'zbekiston Respublikasida yerni boshqarishga doir isloxotlar. Yer boshqarishning nazariy jihatlari.

**3 – mavzu. Yerdan foydalanishni tartibga solish uchun yer tuzish vazifalari.**



Yerdan foydalanishni tartibga soluvchi omillar. Yer tuzish va uning muhim vazifalari.

**4 – mavzu. Yer resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishni prognozlash, rejalashtirish.**

O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanishni muhofaza qilish. Yerdan foydalanishni prognozlash va rejalashtirish. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida yerni muhofaza qilishning asosi.

**5 – mavzu. Erni o'zlashtirish jarayonida olib boriladigan geodeziya ishlari.**

Respublikamiz hududidagi turli maqsadli yerlarni o'zlashtirish. Yerlarni o'zlashtirishda olib boriladigan geodeziya ishlari. Yer maydonini aniqlash, hududni topografik sy'omka qilish va topografik karta, planlarini yaratish.

**6 – mavzu. Yer tuzishda maydonlarni aniqlash usullari.**

Yer tuzish jarayonida maydonlarni aniqlash. Maydonlarni aniqlash uslubiyati.

**7 – mavzu. Xo'jaliklararo yer boshqaruvi.**

Tuman va Shahar miqiyosida xo'jaliklararo yer boshqaruvi hamda uning nazorati. Yer boshqaruvini olib borilishi.

**8 – mavzu. Fermer xo'jaligida yer tuzish ishlari.**

O'zbekiston Respublikasi fermer xo'jaligi isloxotida yer tuzishning ahamiyati. Yer tuzishni bajarish tamoyillari.

**9 – mavzu. Uchastkani loyihalash va loyihalash usullari.**

Yer uchastkasini loyihalash tartibi. Loyihalash usullari va ularning xususiyatlari.

**10 – mavzu. Yer tuzish loyihalarini aholi punktlarida o'tkazish.**

Yer tuzish loyihalari va ularning tuzilishi. Axoli punktlarida yer tuzish loyihalarini amalga oshirish. Ko'p maqsadli umumiy mulklar.

**11 – mavzu. Qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan yerlardan foydalanish bo'yicha tavsiflar.**

Qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan yerlarning xususiyatlari. Qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan yerlardan foydalanish. Qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan yerlardan foydalanishning qonuniy omillari.

**12 – mavzu. Ishlab chiqarish birliklari va biznes markazlari yerlarini boshqarish.**

Ishlab chiqarish birliklari va biznes markazlari yerlari. Ishlab chiqarish birliklari va biznes markazlari yerlarining boshqarilishi.

**13 – mavzu. Yer tuzish va boshqarishga doir qonun hijjatlari.**

O‘zbekiston Respublikasida yer tuzish va boshqarishning qonuniy tamoyillari O‘zbekiston Respublikasida yer tuzish va boshqarishning qonun hujjatlari. Yer tuzishda kadastr suratlarini ishlab chiqish texnologiyasi.

**14 – mavzu. Yer tuzish.**

Yer tuzish uning hususiyatlari. Yer tuzishni bajarilishi va unga doir qonuniy hujjatlar. Yer tuzishda qo‘llaniladigan zamonaviy usullar va asboblar.

**15 – mavzu. Yer tuzish uchun inventarizatsiya ishlarining olib borilishi**

Yer tuzish jarayonida inventarizatsiya ishlari. Yer tuzish, kadastr sohasida nventarizatsiyaning maqsad va vazifalari.

**III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg‘ulotlarda ma’ruza darslarida olingan bilimlar amaliy hisob kitob ishlari bilan mustahkamlanadi, bunda quyidagi mavzulardan masala va misollar yechish tavsiya etiladi.

1. Yer tuzish ishlari uchun yer uchastkasining koordinatalarini hisoblash
2. Yer tuzish ishlarining rejasini tuzish
3. Fuqarolik qonunchiligi. Fuqarolik huquqlari va majburiyatlarining paydo bo‘lishi. Fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish
4. Moddiy va nomoddiy mulklar
5. Bitimlar tushunchasi, turlari va shakli. Bitimlarning haqiqiy emasligi.
6. Iqtisodiyotni boshqarish huquqi. Operatsion huquqiy boshqaruv. Mulk huquqini olish va tugatish
7. Xususiy mulk. Jamoat mulki. Umumiy mulk. Mulk huquqi va boshqa mulkiy huquqlarni himoya qilish.
8. Yer maydonini analitik tarzda aniqlash
9. Meros huquqi. Meros bo‘yicha umumiy qoidalar. Vasiyatnoma bo‘yicha meros. Qonun bo‘yicha meros. Merosni olish.
10. Dehqon xo‘jaligi yerlarining maydonini tahliliy usul yordamida aniqlash
11. Yer fodi va uning toifalari.
12. Paletika usulida qishloq xo‘jaligi yerlarining maydonini aniqlash

Amaliy mashg‘ulotlar, kadastr xizmatlarida yer huquqi va kadastr asoslari hujjatlarini ishlab chiqarish jarayonlarida bakalavrni ishtirok etishi bilan uzviy bog‘liqlikda olib borilishi maqsadga muvofiq.

Shuningdek, bakalavr nazariy va amaliy darslardan tashqari mustaqil tayyorgarlik ko‘rishi, muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda internet tarmog‘idan foydalanib chet el tajribalari bilan tanishishi lozim.



Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari**

1. Yer qonunchiligining konstitutsiyaviy asoslari
2. Yer tuzish va maqbullashtirish tushunchasi va uning vazifalari
3. Xorijiy mamlakatlarda yer tuzish va maqbullashtirishning tajribalari
4. Yer tuzishning turlari, shakllari va iqtisodiy mohiyati
5. Yer tuzish, maqbullahtirish va boshqarish jarayonida o’tkazladigan geodezik ishlar
6. Yer uchastkalari haqida ma’lumotlar
7. Aholi punktlari yerlarining huquqiy holati tushunchasi va o‘ziga xos xususiyatlari
8. Davlat yer kadastrining turlari, tamoyillari va hujjatlari
9. Yer uchastkalarini kadastr uchun su’ratga olish va abrisini tuzish tartibini o‘rganish
10. Davlat yer kadastrini yuritishda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning o‘ziga xos xususiyatlari
11. Davlat yer kadastrini yuritishda aholi punktlari yerlarining o‘ziga xos xususiyatlari
12. Yer tuzish va boshqarishning rivojlanish qonuniyatlari
13. Zamonaviy yer tuzish va uni boshqarish konseptsiyasi
14. Xo’jaliklaro yer tuzish
15. Yerlarga oid Egalik huquqini belgilovchi omillar
16. Yer resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning umumiy chizmalari. Respublika, viloyatlar va ma'muriy tumanlarning yer tuzish chizmalari
17. Yer tuzish jarayoni, loyiha hujjatlari va mualliflik nazorati
18. O’zbeston respublikasi yer fondi yer tuzish ob’ekti sifatida
19. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni boshqarish va ularning huquqiy holati
20. Axoli punktlari yerlarini maqbullashtirish va boshqarishda huquqiy holatlar

Talabalar ma’ruza va amaliy mashg‘ulot darslarida olgan bilim hamda

| | |
|---|---|
| | ko‘nikmalari asosida Mustaqil ta’lim va uning mavzularini o‘zlashtiradilar. Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Ushbu fanni o‘rganish jarayonida talaba:<br>- yerlarni maqbullashtirish va boshqarish fanining asosiy tushunchalari, kategoriyalari va yo‘nalishlarining mazmunini bilish;<br>- tabiiy muhit va yerlarning muhim tarkibiy qismi sifatida yerdan foydalanish va boshqarish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni bilan tanishish;<br>- yerlarni maqbullashtirish qonunchiligi normalarini mustaqil izohlash va qo‘llash, yer munosabatlari sohasidagi turli vaziyatlarni tahlil qilish va baholash, yer tuzishda loyihalash amaliyoti namunalarini baholashni o‘rganish; |
| 4. | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• Amaliy mashg’ulotlar (mantiqiy fiklash, GAT dasturlarida ma’lumotlar bazasini yaratish ishlash, olingan natijalarni hisoblash);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo’lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: —O‘zbekiston, 2023 y.<br>2. O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi”. T., Adolat, 2004 y. (2023 yil qayta nashr)<br>3. Muqumov A.M. “Yer tuzish asoslari”. Darslik. T.2023 y.<br>4. Абасова А. М. «Землеустройство» ГАОУ ВО «Дагестанский Государственный университет народного хозяйства». Махачкала-2019.<br>5. Q.Raxmonov., Sh.K.Narbayev., Z.Muqimov. “Yer resurslarini boshqarish” O‘quv qo‘llanma. T.2019 y.<br>6. В.С. Ермаков, Н.Н. Загрядская, Е.Б. Михаленко, Н.Д. Беляев Инженерная геодезия. Землеустройство: Учеб. Пособие. СПб.: Изд-во |



| | |
|---|---|
| | СПбГТУ, 2001, 104 с.<br><br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqoralik kodeksi. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 21.04.2021 y. 683-son qaroriga muvofiq o‘zgatirish va qo‘shimchalar kiritilgan). O‘zbekiston. 1997-yil.<br>2. Ашуров А.Ф., Романюк Ю.А. Кадастр зданий и сооружений – Ташкент. Издательство ООО “Lesson Press”– 2023 г. - 175 с.<br>3. Клебанович, Н. В. “Земельный кадастр”: учебник / Н. В. Клебанович, Л. И. Смыкович. – Минск: БГУ, 2021. – 279 с.<br>4. Yodgorov X., Tangabayev B., Saidmuratov B. “Ko‘chmas mulk huquqi” Amaliy qo‘llanma. T. 2017-yil.<br>5. D.O. Juraqulov., G‘N. Aliqulov., V.R.Niyazov “Yer uchastkasi va bino inshootlarga bo‘lgan xuquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish”. O‘quv qo‘llanma. Samarqand.-2015, 292 бет.<br>6. Юсупова З.Г. “Земельное право”. Учебное пособие. Казань 2014 г.<br>**Axborot manbaalari**:<br>1. www.lex.uz<br>2. www.kadastr.uz<br>3. www.geokniga.ru |
| 7. | Toshkent arxitektura-qurilish universitetining 2024 yil «31» 05 dagi 9 -sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan |
| 8. | **Fan/modul uchun ma’sular:**<br>Yu.A.Romanyuk - TAQU “Geomatika muhandisligi” kafedrasi dotsenti.<br>B.M.Saidov “Geomatika muhandisligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>F.SH. G‘afurov– Davlat kadastrlari palatasi Toshkent Shahar boshqarmasi “Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish sho‘basi” boshlig‘i<br>A.O.Yuldashev – TAQU “Geomatika muhandisligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi |